



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SAVDOSINING HOZIRGI

HOLATI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

Turayev Abduvoxid Kuldashevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Raqamli iqtisodiyot kafedrasida assistenti

abduvoxidturayev70@gmail.com

XIM-123 guruh talabasi Sulaymonov Abbas

XIM-123 guruh talabasi Isaqulov Shoxruz

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining tashqi savdosi 2017-2025 yillar dinamikasida tahlil qilinadi. Eksport-import tarkibi, geografik diversifikatsiya, savdo balansi holati va rivojlanish istiqbollari o'rganiladi. Tadqiqot davlat statistikasi, Jahon banki va XVF ma'lumotlari asosida amalga oshirilgan bo'lib, tashqi savdoni yanada rivojlantirishga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** tashqi savdo, eksport, import, savdo balansi, diversifikatsiya, erkin iqtisodiy zonalar, O'zbekiston.*

Kirish

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida tashqi savdo har bir mamlakat iqtisodiy rivojlanishining hal qiluvchi omillaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasi uchun ham tashqi savdo munosabatlarining kengayishi iqtisodiy o'sish, ish o'rinlarini yaratish va texnologiyalarni jalb etishning asosiy manbai hisoblanadi. 2017 yildan boshlab amalga oshirilayotgan tizimli iqtisodiy islohotlar - valyuta liberalizatsiyasi, bojxona tartibotlarini soddalashtirish va eksportni rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish - O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyasini sezilarli darajada jadallashtirdi. Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, tashqi savdoning miqdoriy o'sishi bilan birga uning sifat tarkibini - qo'shimcha qiymat yaratish darajasini, eksport diversifikatsiyasini va savdo sheriklar doirasini - tahlil qilish davlat iqtisodiy siyosati uchun zaruriy asosdir.



Tadqiqotning maqsadi - 2017-2025 yillar davomida O'zbekiston tashqi savdosining asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va rivojlanish yo'nalishlarini asoslashdan iborat.

Ilmiy adabiyotlarda tashqi savdoni o'rganishda Krugman va Obstfeldning «Yangi savdo nazariyasi», Porter raqobatbardoshlik rombining mamlakat darajasiga tatbiqi va Dunning eklektik paradigmasi kabi metodologik asoslardan foydalaniladi. Ushbu maqolada taqqosiy tahlil, statistik ma'lumotlarni umumlashtirish va dinamik tahlil usullari qo'llanilgan.

Adabiyotlar sharhi va metodologiya

Tashqi savdoni o'rganishda bir qator xalqaro va mahalliy tadqiqotchilar muhim hissa qo'shgan. Krugman (1979) ning «Yangi savdo nazariyasi» mamlakatlararo savdo afzalliklarini nafaqat resurs farqlarida, balki miqyos effekti va mahsulot differentsiatsiyasida ham ko'radi. Heckscher-Ohlin modeli esa O'zbekiston kabi resurslarga boy mamlakatlar uchun ixtisoslashuvning asosiy omillarini tushuntiradi. Mahalliy tadqiqotchilardan Qodirov va Ismoilov (2021) O'zbekiston tashqi savdosini globallashtirish kontekstida o'rganib, eksport tarkibini diversifikatsiya qilishning zarurligini asoslab berdi. Sodiqov (2022) esa tashqi savdodagi institutsional to'siqlarni tahlil qilib, erkin iqtisodiy zonalarning eksport o'sishiga ijobiy ta'sirini empirik jihatdan isbotlagan. Ushbu maqolada O'zbekiston Statistika agentligining 2017-2025 yillarga oid rasmiy statistikasi, Jahon bankining World Development Indicators ma'lumotlar bazasi, XVFnning Article IV konsultatsiya hisobotlari va UNCTADning savdo statistikasi asosiy empirik manba sifatida ishlatildi. 2017-2025 yillar orasida O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi deyarli ikki barobarga oshdi. Quyidagi jadvalda ushbu davrning asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan. 2017-2025 yillar orasida O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi deyarli ikki barobarga oshdi. Quyidagi jadvalda ushbu davrning asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan. O'zbekiston tashqi savdosining asosiy ko'rsatkichlari (ming AQSh dollari)

Yil	Eksport	Import	Jami aylanma	Saldo
2017	12553.7	14012.4	26566.1	-1458.7



2018	13990.7	19439.3	33430	-5448.6
2019	17458.7	24292.3	41751	-6833.6
2020	15102.3	21153.8	36256.1	-6051.5
2021	16662.8	25507.7	42170.5	-8844.9
2022	19732.6	30767.8	50500.4	-11035.2
2023	24869.5	38659.1	63528.6	-13789.6
2024	27270.1	39968.3	67238.4	-12698.2
2025	33800	47400	81200	-13600

Jadval tahlilidan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston eksporti 2017 yildagi 12,5 mlrd dollardan 2023-yilda 24,8 mlrd dollarga oshdi. Shu bilan birga, import yanada tezroq o'sib, 2023 yilda 38,6 mlrd dollarni tashkil etdi. Natijada savdo saldosini manfiy bo'lib qolmoqda, biroq bu ko'p jihatdan texnologik uskunalarning va kapital tovarlarning aimportiga bog'liqligi tufayli investitsiya faolligining o'sishini aks ettiradi. 2025-yil yakuniga ko'ra, O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi \$81,2 mlrd ga yetib, 2024-yilga nisbatan 20,7% ga o'sdi. Eksport \$33,8 mlrd gacha (+24%) ko'paydi, jami eksportning deyarli 30 foizi oltin hissasiga to'g'ri keldi. Import 18,5% ga o'sdi.

Savdo aylanmasining dinamikasida ikki muhim bosqich ajralib turadi. 2017-2019 yillar - liberalizatsiya va yangi bozorlarni qamrab olish bosqichi; 2020 yil - COVID-19 pandemiyasi tufayli vaqtinchalik pasayish; 2022- yilda savdo aylanmasining 25 foizga o'sishi ayniqsa e'tiborlidir. O'zbekiston eksportining tarkibiy tahlili uning xom ashyo yo'naltirilgan xarakterini ko'rsatadi. 2025-yil ma'lumotlariga ko'ra eksport tarkibida: oltin va qimmatbaho metallar - 40-43%, tabiiy gaz - 9-11%, kimyo sanoati mahsulotlari - 8-10%, to'qimachilik va tayyor kiyim-kechak - 12-14%, meva-sabzavot va oziq-ovqat - 8-10%, boshqa mahsulotlar - 12-18% ni tashkil etadi.



Tashqi savdo aylanmasi hajmi (yillik)



Ekspart tarkibidagi eng ijobiy o'zgarish - to'qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlari ulushining oshishidir. 2017-yilda to'qimachilik eksporti atigi 7-8% ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 12-14% ga yetdi. Bu tendentsiya davlatning «xom paxtadan - tayyor mahsulotga» siyosatining amaliy natijasini ko'rsatadi. Biroq oltin eksportiga bog'liqlik yuqori bo'lib qolmoqda va bu global narx o'zgarishlariga nisbatan zaiflikni saqlaydi.

Oktabr, noyabr va dekabr oylarida O'zbekiston oltin eksportini amalga oshirmadi. Biroq dastlabki to'qqiz oyda rekord darajada — 9,9 mlrd dollarlik oltin sotdi, bu 2024-yildagi ko'rsatkichdan (7,5 mlrd dollar) 32,3 foiz ko'p. Qimmatbaho metalni yetkazib berish mamlakat umumiy eksportining 29,3 foizini va tovarlar eksportining 41,2 foizini tashkil etdi. Oltinsiz eksport qiymati atigi 20,8 foizga oshib, 23,9 mlrd dollarni tashkil qildi. Sanoat mahsulotlarining eksportdagi ulushi 15,3 foizdan 11,8 foizgacha, yetkazib berish hajmi esa 4,2 mlrd dollardan qariyb 4 mlrd dollargacha pasaydi.

2024-yilda meva va sabzavotlar eksporti 2,2 million tonnagacha (+6,2 foiz) ko'paydi, qiymat jihatidan esa 2,1 mlrd dollargacha (+36,9 foiz) o'sdi.

O'sishning asosiy omili mevalar bo'lib, ularning eksporti 524 ming tonnadan 629 ming tonnagacha, ulardan olingan daromad esa 532 mln dollardan 700 mln dollargacha ko'paydi. Uzun, mayiz va boshqa quruq mevalar sezilarli hissa qo'shdi,



bunda ham yetkazib berish hajmi, ham qiymat o'sishi qayd etildi. Mayiz eksporti miqdor jihatidan ikki barobardan ziyodga ko'paydi. Sabzavotlar eksporti esa, aksincha, hajm jihatidan 685 ming tonnadan 583 ming tonnagacha kamaydi, biroq ularning eksportidan olingan daromad 200 mln dollardan 214 mln dollargacha ortdi. Bu piyoz, karam va sabzi kabi mahsulotlar yetkazib berish kamayganiga qaramay, o'rtacha eksport narxlari oshganini ko'rsatadi. Qovun va tarvuz yetkazib berish sezilarli o'sish tendensiyasini namoyish qildi — eksport hajmi deyarli 50 foizga, ulardan olingan daromad esa 55 foizdan ortiqqa ko'paydi. Dukkakli ekinlar va yong'oqlar, jumladan, mosh eksporti ham, ayniqsa, qiymat jihatidan barqaror o'sdi. Shu bilan birga, oltin eksporti amalga oshirilmaganiga qaramay (2024-yil dekabr oyida u 856 mln dollarni tashkil etgandi), umumiy eksport 5 foizga oshgan. Oltinsiz eksport birdan 51,6 foizga ko'tarilgan — bu butun 2025-yildagi eng yuqori ko'rsatkichdir. Bundan tashqari, dekabr oyida oltin, energiya resurslari va xizmatlarsiz eksport 83,6 foizga o'sdi, holbuki o'tgan 11 oyda ushbu toifalarning o'rtacha o'sishi atigi 10,4 foizni tashkil etgandi.

Tarixda ilk bor Xitoydan bir oylik import hajmi 2 mlrd dollarga yetib, 81 foizga oshdi. Iqtisodchining ta'kidlashicha, iyun oyidan beri Xitoydan importning oylik o'sishi 44 foizdan pastga tushmagan, bu global savdo urushlari oqibati bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu bilan bir vaqtda, dekabr oyida Xitoyga eksport 4,2 baravarga (460 mln dollarga) ko'paygan. 2025-yilning dastlabki 11 oyida bu yo'nalishdagi yetkazib berish 2,3 foizga kamaygan bo'lsa, dekabr oyidagi keskin ko'tarilish tufayli Xitoyga eksportning yillik o'sishi 20,2 foizgacha tezlashdi. Qo'shni davlatlarga eksport ham keskin tezlashgan. Xususan, Qirg'izistonga oylik yetkazib berish 5,8 barobar (+174,1 mln dollar), Tojikistonga esa 2,5 barobar (+91 mln dollar) ortgan. Taqqoslash uchun, o'tgan 11 oyda ushbu mamlakatlarga eksportning o'rtacha oylik o'sishi mos ravishda 32,3 foiz va 10,4 foizni tashkil etgandi.

Geografik jihatdan O'zbekiston eksport bozorlari ham kengaydi. An'anaviy MDH bozorlariga (Rossiya, Qozog'iston - 40-45%) qo'shimcha ravishda Xitoy (8-10%), Yevropa Ittifoqi (5-7%), Turkiya (6-8%), Janubiy Koreya (3-4%) va Arab



davlatlari (4-6%) muhim eksport yo'nalishlari sifatida shakllanmoqda. Ushbu diversifikatsiya siyosiy-iqtisodiy xavflarni kamaytirish va narx raqobatbardoshligini oshirish nuqtayi nazaridan strategik ahamiyat kasb etadi. Import tarkibida mashina va uskunalari (22-25%), elektrotexnika mahsulotlari (14-16%), kimyoviy mahsulotlar (10-12%), oziq-ovqat (8-10%) va transport vositalari (7-9%) asosiy o'rinlarni egallaydi. Importning yirik qismi investitsiya tovarlari bo'lib, bu mamlakat sanoatini modernizatsiya qilish jarayoni bilan bog'liq.

Asosiy muammolar va tavsiyalar.

Tadqiqot natijalari O'zbekiston tashqi savdosida bir qator tizimli muammolarni ko'rsatdi. Birinchi muammo - eksportning xom ashyo, ayniqsa oltinga haddan ortiq bog'liqligi. Oltin narxining global bozordagi tebranishlari eksport daromadlarini beqaror qiladi va makroiqtisodiy barqarorlikka tahdid soladi. Ikkinchi muammo - logistika xarajatlarining yuqoriligi. O'zbekiston ikki qo'shni mamlakat orqali o'tadigan quruqlik davlati sifatida eksport xarajatlari dengizga chiqish imkoni bo'lgan mamlakatlarga nisbatan 15-20 foizga yuqori. Uchinchi muammo - standartlash va sertifikatlash tizimining cheklovlari. Ko'plab O'zbekiston ishlab chiqaruvchilari ISO, HACCP, CE va boshqa xalqaro sertifikatlarni olishda moliyaviy va texnik qiyinchiliklarga duch keladi. To'rtinchi muammo - eksport moliyalashtirishning yetarli rivojlanmaganligi. Eksport kreditlari va kafolatlash tizimi hali ham kichik va o'rta eksportchilarning barcha ehtiyojlarini qondira olmaydi. Ushbu muammolarni hal etish bo'yicha quyidagi tavsiyalar taklif etiladi: (1) Eksport diversifikatsiyasini tezlashtirish maqsadida to'qimachilik, farmatsevtika, IT xizmatlari va agrosanoat kompleksini ustuvor rivojlantirish; (2) Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li qurilishini jadallashtirib, «Lojistika xarajatlari fondini» tashkil etish; (3) Eksport kreditlash va sug'urtalash tizimini kengaytirish hamda sertifikatlash xarajatlarini subsidiyalash; (4) Raqamli savdo platformalari orqali xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish; (5) Yevropa Ittifoqi bilan GSP+ rejimini qo'lga kiritish bo'yicha muzokaralarni yakunlash.

Xulosa.



O'zbekiston tashqi savdosi 2017-2025 yillar davomida miqdoriy jihatdan sezilarli o'sdi: savdo aylanmasi 25,8 mlrd dollardan 48,5 mlrd dollarga ko'tarildi, geografik diversifikatsiya kuchaydi va yangi eksport tarmoqlari faollashdi. Shu bilan birga, eksport tarkibining xom ashyo yo'naltirilganligini bartaraf etish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish va eksport sifatini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish dolzarb vazifalar bo'lib qolmoqda. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston tashqi savdosining raqobatbardoshligini oshirishda davlat siyosati bilan xususiy sektorning hamkorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Eksport yo'naltirilgan ishlab chiqarish madaniyatini shakllantirish, innovatsion mahsulotlar ulushini oshirish va raqamli savdo imkoniyatlaridan foydalanish - O'zbekistonning jahon savdo tizimidagi o'rnini mustahkamlashning asosiy yo'llaridir. Ushbu maqolada taklif etilgan tavsiyalar amaliy siyosat ishlab chiqishda manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Krugman, P. (1979). Increasing returns, monopolistic competition, and international trade. *Journal of International Economics*.
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024).
3. World Bank. (2024). *Uzbekistan Economic Update*. Washington, D.C.: World Bank Group.
4. IMF. (2024). *Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation Staff Report*.
5. https://stat.uz/img/news/press-reliz-uzb_p58093.pdf
6. <https://siat.stat.uz/reports-filed/2358/line-data>
7. <https://siat.stat.uz/reports-filed/2358/table-data>
8. <https://gov.uz/oz/mfa/sections/view/14469>
9. <https://www.gazeta.uz/oz/2026/01/29/trade-2025/>